



“SABR” KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI



Mamashoyeva Mashhura

Xalqaro innovatsion universitet magistranti
E-mail: [mashhuramamashoyeva.@gmail.com](mailto:mashhuramamashoyeva@gmail.com)

Annotatsiya. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi. Mazkur maqolada o‘zbek xalqining tili va madaniyatida muhim o‘rin tutuvchi “sabr” konsepti lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. “Sabr” tushunchasining semantik doirasi, xalq og‘zaki ijodida, adabiyotda va diniy manbalarda ifodalanishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, konseptning madaniy va axloqiy mazmuni, milliy tafakkurdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sabr, konsept, lingvomadaniyat, xalq tafakkuri, frazeologizm, qadriyat, diniy manba, semantika, milliy tafakkur, madaniy timsol.

Аннотация. Народная культура вербализуется через язык, именно язык приводит в действие базовые, фундаментальные понятия культуры. В данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируется концепт «терпение» (sabr), занимающий важное место в языке и культуре узбекского народа. Рассматривается семантическое поле концепта «sabr», его отражение в устном народном творчестве, художественной литературе и религиозных источниках. Кроме того, раскрывается культурно-нравственное содержание данного концепта и его роль в национальном мышлении и мировоззрении.

Ключевые слова: терпение, концепт, лингвокультура, народная мысль, фразеология, ценность, религиозный источник, семантика, национальная идеология, культурный символ, семантика.

Annotation. Folk culture is verbalized through language, and it is precisely language that activates the fundamental and core concepts of culture. This article provides a linguocultural analysis of the concept of “patience” (sabr), which occupies an important place in the language and culture of the Uzbek people. The semantic scope of the concept of “sabr” and its representation in folklore, literature, and religious sources are examined. In addition, the cultural and ethical content of the concept, as well as its role in national mentality and worldview, are elucidated.

Key words: patience, concept, linguistic culture, folk thought, phraseology, value, religious source, national ideology, cultural symbol, semantics.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Til – xalqning ma’naviy dunyosi, madaniyati va milliy tafakkurining asosiy ko‘zgidir. Har bir xalqning tili uning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va



madaniyatining aksidir. Har bir tildagi soʻz, ifoda yoki obraz xalqning dunyoni qanday idrok etishini, nimalarni qadrlashini aks ettiradi. Shu boisdan tilshunoslikda soʻnggi yillarda lingvomadaniyatshunoslik va konseptologiya yoʻnalishlari alohida eʼtiborga olinmoqda. Tilda ifodalangan tushunchalar faqat grammatik birlik sifatida emas, balki xalqning qadriyatlarini, axloqiy meʼyorlarini va ijtimoiy ongini namoyon etuvchi konseptlar sifatida ham oʻrganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yoʻnalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomeni sifatida oʻrganuvchi fan boʻlib, oʻzaro aloqadorlikda boʻlgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqida shunday yozadi: “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrogʻi insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni boʻlgan inson toʻgʻrisidagi antropologik paradigмага xos boʻlgan yutuqlar majmuasidir” [5.222].

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar oʻzbek tilshunosligida oxirgi oʻn yilliklarda paydo boʻla boshladi. Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi va yoʻllarini izlab...” nomli malomasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib beriladi. Ushbu maqolani oʻzbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan [2. 3–16].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Lingvomadaniyning qiziqish doirasiga ramziy maʼnoga ega boʻlgan va madaniy maʼlumotlarni aks ettiruvchi har qanday til birliklari (frazologik birliklar, metaforalar, maqollar va boshqalar) kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida koʻrsatilgan birliklar, mazmun planini esa oʻsha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan oʻzining mazmun va ifoda planiga ega boʻlishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy koʻrinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, “lingvokulturema” tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, “zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar koʻrinishida, yaʼni soʻzlar vositasida ifoda etadi” [4.15]. Til madaniyatlarining milliy oʻziga xosligini oʻrganish samaradorligi uchun ularga butun lingvomadaniy makonni shartli ravishda “maʼnolar nurlari” – tushunchalarga ajratuvchi kontseptsiya sohasi prizmasi orqali qarash mumkin.



Konseptsiya nazariyasi, lingvomadaniy doirasida faoliyat ko'rsatib, voqelikni etnik-madaniy idrok etish xususiyatlarini aniqlash uchun ko'p darajali til birliklarini birlashtirishga imkon beradi. Shunday konseptlardan biri – “sabr”, o'zbek xalqining dunyoqarashida chuqur ildiz otgan, axloqiy, diniy va ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi tushunchadir. O'zbek xalqining madaniy-ma'naviy hayotida “sabr” qadimdan yuksak axloqiy fazilat sifatida e'tirof etilib keladi.

“Sabr” so'zi arabcha *ṣabr* so'zidan kirib kelgan bo'lib, “chidam”, “toqat”, “o'zini tutish”, “bardoshlilik” ma'nolarini bildiradi. O'zbek tilining 5-jildli izohli lug'atida u “SABR [a. – chidam, bardosh, iroda, qat'iyat]:

1. Biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat qilish; o'zini tiyish. Sabr tagi – sariq oltin. Maqol. Banda deganning sabrdan boshqa chorasi yo'q. Hamza, Tanlangan asarlar.

2. G'am-kulfat, azob-musibatlarga chidash, toqat qilish, bardosh berish. – Osonmi, aylanay, – E'tibor opa yostiqni E'zoxxonning biqiniga surib qo'ydi. – Tag'in ham temir ekansiz. Sabringizga balli, girgitton! H. G'ulom, Mash'al. Sabr – inson irodasining toji! – dedi Jo'raxon Majidga. Nazarmat, Jo'rlar baland sayraydi” sifatida og'irlik, musibat, sinovlarga toqat qilish, o'zini bosib olish holati izohlangan.

Bu so'zning semantik doirasi keng bo'lib, u o'zbek leksik tizimida axloqiy-ruhiy qadriyat sifatida quyidagi ma'nolarni qamrab oladi: ruhiy holat (ichki tinchlik, xotirjamlik), axloqiy sifat (bardoshlilik, sabr-toqatli bo'lish), diniy qadriyat (Allohga iymon bilan sinovlarga sabr qilish) kabi.

“Sabr” konsepti o'zbek tilida nafaqat so'z ma'nosi darajasida, balki madaniy konsept sifatida ham mustahkam o'rin egallagan.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ham “sabr” tushunchasi eng ko'p targ'ib qilingan fazilatlar sirasiga kiradi. Maqollar, matallar, xalq hikmatlari orqali sabrning mohiyati, hayotiy ahamiyati va insoniy fazilat sifatidagi qadri ifodalanadi. Maqollar misolida: *Sabr qilgan – g'alaba qilgan. Sabrning tagi – sariq oltin. Sabrli el – baxtli el. Sabr – g'azabning davosi kabi. “Sabr qilgan – g'alaba qilgan” ushbu maqolda sabr insonni muvaffaqiyatga eltuvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Xalq hikmati shuni ko'rsatadiki, har qanday qiyinchilikni bardosh bilan yenggan kishi oxir-oqibat zafar topadi. Demak, sabr – g'alabaning kaliti, insoniy matonatning belgisi hisoblanadi. “Sabrning tagi – sariq oltin” bu maqolda sabrning natijasi, ya'ni mehnat va bardoshning mevasining bebaho ekani ta'kidlanadi. “Sariq oltin” timsoli orqali xalq sabrning mukofoti eng qimmat boylikka tengligini ifodalagan. “Sabrli el – baxtli el” ushbu hikmatda sabr millatning ijtimoiy hayotiga tatbiq etiladi. Xalq sabrni jamoaviy fazilat, tinchlik va barqarorlikning garovi sifatida ko'radi. Sabrli jamiyat – totuv, bardoshli va farovon*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 3 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 411.



jamiyatdir. “*Sabr – g‘azabning davosi*” bu maqolda esa sabr insonning ichki holatini boshqarish vositasi sifatida talqin etiladi. U g‘azab, shoshqaloqlik va jahldan saqlovchi, ruhiy muvozanatni tiklovchi fazilat sifatida ko‘rsatilgan. Demak, maqollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining tilda ifodalangan konseptual dunyoqarashida “sabr” – g‘alaba, tinchlik, baxt va ruhiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq tushunchadir. Bu maqollarda sabr insonning ruhiy qudrati, hayotdagi sinovlarga bardosh berish vositasi sifatida aks etgan.

Sabr qilgan daryo kechar, sabr qil, toqat qil, sabr kosasi to‘ldi, sabr qilgan g‘alaba qilar kabi frazeologizm birliklarida esa xalq tafakkurida sabrning ijobiy natijaga olib boruvchi kuch ekani ifodalangan.

“*Sabr qilgan daryo kechar*” frazeologik birligi “sabrli odam har qanday qiyinchilikni yengadi” degan xalqona hikmatni ifodalaydi. Lingvomadaniy jihatdan “daryo” obrazi o‘zbek xalqining hayotiy muhitida to‘siq va sinov timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Daryodan kechish esa jasorat va bardoshlilikni talab qiladi.

Bu frazeologizmdagi sabr – ruhiy kuch, daryo esa hayotdagi sinovlar metaforasi sifatida ifodalanadi. “Daryo kechish” birligida xalqning hayotga bardosh bilan qarash, iymon va matonat bilan sinovlarni yengish qadriyati aks etadi.

XULOSA

Shunday qilib, “sabr” konsepti o‘zbek xalqining milliy-madaniy ongida universal qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi va frazeologizmlar bu qadriyatni lingvomadaniy belgi sifatida ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, sabr konsepti asosida tahlilga tortilgan mazkur birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari, milliy mentalitet va qadriyatlarini ifodalovchi poetik vositalar, badiiy timsollar tizimi diqqatga sazovor bo‘lib, milliy g‘oya va qadriyatlarni targ‘ib qilish manbai sifatida e‘tiborlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 176 б.
2. Mahmudov N. – Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – №5. B.3–16.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III жилдли II жилд. – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 687 б.
5. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1196. С.222.